

RESPUBLIKA QISHLOQ XO'JALIGIDA O'RMON FONDI YERLARIDAN FOYDALANISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ijtimoiy fanlar

kafedrası katta o'qituvchisi, Toshkent.

Annotatsiya: O'rmon fondi yerlari alohida ekologik ahamiyatga ega bo'lib, o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. O'rmon fondi yerlarining 2022 yilning 1 yanvar xolatiga O'zbekiston Respublikasi o'rmon fondi yerlarining umumiy maydoni 11,998 mln. gektarni yoki jami respublika yerlarining 26,5 foizini tashkil qiladi.


Kalit so'zlar. O'rmon fondi yerlari, davlat-xususiy sheriklik, o'rmon xo'jaliklari, o'rmon ishlab chiqarish korxonalarini, o'rmon tajriba stansiyalari, cho'l o'simliklari.

O'rmon fondi yerlaridan foydalanishni rivojlantirishning eng to'g'ri va maqbul usuli – innovasion texnologiyalardan foydalangan holda barcha o'rmon fondi yerlari elektron bazasini yaratish va ular ustidan doimiy monitoring o'rnatishdan iborat. Davlat xususiy sheriklikning asosiy tamoyili shundan iborat bo'lishi kerakki, bu tamoyillar yordamida davlat tomonidan qishloq xo'jaligidagi mavjud qaysi xizmatlarga va infrastrukturaga muhtoj ekanligini aniqlansa, xususiy investorlar esa davlat talablariga mos keladigan takliflar bilan maydonga chiqishlari nazarda tutiladi. DXSh tizimini amaliyotga joriy etish orqali DXSh loyixalardan foydalanish sheriklikning asosiy modellarini aniqlashga imkon beradi. Buni biz quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Model	Mulkchilik	Boshqarish	Moliyalashtirish
Operator	Xususiy/davlat	Xususiy	Xususiy
Kooperasiya	Xususiy/davlat	Xususiy/davlat	Xususiy/davlat
Konsensiya	Xususiy	Xususiy/davlat	Xususiy/davlat

Shartnomaviy	Xususiy/davlat	Xususiy	Xususiy
Lizing	Xususiy	Xususiy/davlat	Xususiy/davlat

Ushbu modellardan birini tanlash shartnoma qaysi sohada amalga oshirilayotganiga qarab aniqlash imkonini beradi.. Shuningdek, davlat va tadbirkorlik o'rtasidagi davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining turli xil modellari mavjud bo'lib. Amaliyotda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining unga mos shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



1-rasm. Davlat-xususiy sherikchilik modellari tarkibi va amal kilish mexanizmi¹.

Bizning fikrimizcha, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar iborat bo'lishi kerak:

¹ Муаллиф ишланмаси

- birinchidan, byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini shakllantirish va DXSh-loyixalarda "byudjet suyanchig'i"ni shakllantirish yordamida bevosita qo'llab quvvatlash;

- ikkinchidan, me'yoriy-huquqiy ta'minotni takomillashtirish yordamida qonunchilikdagi to'siqlarni, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlarida DXSh-loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish taomillaridagi to'siqlarni bartaraf etish;

- uchinchidan, DXShni amalga oshirishda cheklovlarni bartaraf etish maqsadida ichki tarmoqni tartibga solishni hamda o'zini-o'zi moliyalashtirish mexanizmini amalga oshirishga va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida tariflarni tartibga solishga yondoshuvlarni optimallashtirish; O'rmon fondi yerlari o'zlashtirish ishlari jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Asosiy e'tibor ko'proq kislorod ishlab chiqaruvchi daraxtzorlarni ko'paytirish, niholxona va ko'chatxonalar tashkil etishga qaratilmoqda. Daraxtzorlarni ko'paytirishdan tashqari o'rmon fondi yerlarida joylashgan korxonalarda bugungi kunda dorivor o'simliklar, bodom, pista, yong'oq kabi mevalar yetishtirilmoqda. Sanoatbop yog'och yetishtirishga ham katta e'tibor qaratilib, tez o'sadigan terak va pavlovniya plantasiyalari barpo etilmoqda. 2018 yildan boshlab yiliga 295 ming gektardan sug'oriladigan yerlarda ihota daraxtzorlari barpo etilmoqda. Respublikasi davlat o'rmon xo'jaliklari o'rmon fondi yerlarining elektron xaritalarini yaratish ishlari rejaga kiritilgan. 2022 yil rejasiga asosan innovasion texnologiyalar asosida O'zbekiston Respublikasining 24 ta davlat o'rmon xo'jaliklaridagi 2.1 mln. gektar yerda o'rmon tuzish dala va kameral ishlarini o'tkazish rejalashtirilgan va mart oyidan boshlab bu ishlar boshlab yuborilgan "O'rmonloyiha" loyihalash instituti tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti "Food and Agriculture Organization of United Nations" (FAO) bilan birgalikda "O'zbekiston tog' va vodiy o'rmonlarini barqaror boshqarish" loyihasi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Mazkur loyiha doirasida xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining uchta viloyati: Qashqadaryo viloyatining Kitob va Dexqonobod tumanlarida, Sirdaryo viloyatining Sirdaryo va Namangan viloyatining Pop Davlat o'rmon xo'jaliklarining jami 200, 0 ming gektar o'rmon fondi

yerlarida masofaviy zondlash ishlari olib borildi. “O‘rmonloyiha” Loyihalash instituti 2021 yildan boshlab mazkur tashkilotning Chexiya, Turkiyadagi mutaxassislari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasidagi 12 mln. gektarda joylashgan jami o‘rmon fondi yerlarining elektron xaritalarini masofaviy zondlash ishlarini bajaradi. Mamlakatimizda o‘tgan **2023 yil yanvar-iyul** oylari davomida umumiy qiymati **2,96** mlrd AQSh dollari bo‘lgan jami **244** ta davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo‘yicha ishlar olib borilganligi va bu chora tadbirlarning natijalarini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

2023 yil yanvar-iyul oylari davomida mamalakatda davlat-xususiy sheriklik doirasida olib borilgan loyixalar tarkibi²

	Sohalar	Miqdori
1.	Energetika, sog‘liqni saqlash, ekologiya, transport sohalarida	6 tadan
2.	Madaniyat, sport sohalarida	3 tadan
3.	Kommunal xizmatlar sohasida	198 ta
4.	Ta’lim sohasida	22 ta
5.	Suv xo‘jaligi sohasida	10 ta
6.	Hunarmandchilik sohasida	4 ta
7.	Iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligi sohalarida	1 tadan

Shuningdek tadqiqot davomida 2023 yilning **yanvar-iyul** oylari oralig‘ida DXSh loyihalari bajarilishining **borishi**, loyihalarning amalga oshirilishini **monitoring** qilish natijasida **33** ta **loyihada** monitoring tadbirlari amalga oshirilganligi kuzatildi³.

O‘rmon fondi yerlaridan foydalanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklikning quyidagi yangi shakllari joriy etish zarur:

- O‘rmon fondining o‘zlashtirilmagan yer uchastkalarida yong‘oq mevali bog‘lar (pista, Bodom, yong‘oq) va tez o‘sovchi daraxtlar (pavlovniya, terak) plantasiyalari barpo etish;

² Статистик маълумотлар асосида муалиф томонидан таёрланган.

³ <https://lex.uz/uz/docs/6642475>

- Oʻrmon fondining choʻl hududlarida joylashgan, suv bilan taʼminlanmagan va oʻrmon bilan qoplanmagan yerlari oʻzlashtirilib, choʻl oʻsimliklari (saksovul, cherkez, qandim, qoraburoq) plantasiyalari barpo etish;

- Oʻrmon fondining suv bilan taʼminlanmagan va oʻrmon bilan qoplanmagan yerlari oʻzlashtirilib, qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat ekinlari (dukkakli, moyli, boshhoqli ekinlar, sabzavot, poliz) va dorivor oʻsimliklar plantasiyalari barpo etish;

Agrar sohada yerdan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish usullari samaradorligini oshirishga respublikada mavjud oʻrmon fondi yerlaridan foydalanishda yuqorida biz tomonimizdan taʼkidlangan davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy qilish orqali erishish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar poʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xoʻjaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5742-sonli farmoni.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5853-sonli farmoni.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PF-6097-sonli farmoni.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli farmoni.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 iyundagi “Erlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-277-sonli qarori.

6. Oʻzbekiston Respublikasining «Er kodeksi». Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va meʼyoriy hujjatlar toʻplami. -T.: «Oʻqituvchi», 1998. – 28-b.

7. Topildiev R.S. Oʻzbekistonda agpap munosabatlar rivojlanishining tarixiy jihatlari. Monografiya. Oʻzbekiston Milliy univesriteti. - T.: 1 Mumtoz soʻz, 2012. - 152 b.